



**INSTAGRAM QISQA KONTENT OQIMI OMMAVIY MADANIYAT KANALI
SIFATIDA: VIZUAL ISTE‘MOL ORQALI YOSHLAR MA‘NAVIY-AXLOQIY
ME‘YORLARINING SILJISHI**

Jo‘raqulov Shohruhbek Nizomjonovich

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(Ma‘naviyat asoslari) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada raqamli muhitda “ommaviy madaniyat”ning tarqalish kanallaridan biri sifatida Instagramdagi qisqa vizual kontent oqimi (Reels/Stories kabi formatlar)ning yoshlar ma‘naviyati va axloqiy qarashlariga ta‘siri tahlil qilinadi. Nazariy asos sifatida “ommaviy madaniyat”ning globallashuv sharoitida g‘oyaviy-mafkuraviy ta‘sir vositasiga aylanishi, uning ko‘ngilochar-axborot xarakteri hamda milliy madaniy ong va tarbiyaga bosim o‘tkazish mexanizmlari yoritiladi. Empirik qism oxirgi bir hafta davomida sifat kontent tahlili va qisqa so‘rov asosida olib borilib, natijalar tematik xulosalar ko‘rinishida bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ommaviy madaniyat, globallashuv, qisqa kontent, vizual iste‘mol, ma‘naviyat, axborot xuruji, mafkuraviy immunitet.*

KIRISH

“Ommaviy madaniyat” zamonaviy jamiyatning kundalik hayoti, ko‘ngilochar va axborot almashinuvi bilan uzviy qo‘shilib ketgan madaniy hodisa bo‘lib, u ommaviy axborot vositalari orqali (Internet, televidenie, radio), shuningdek kino, musiqa, ommabop adabiyot va boshqa ko‘rinishlarda keng tarqaladi. Mazkur qamrov ommaviy madaniyatni faqat “dam olish” yoki “estetik did” bilan cheklab qo‘ymasdan, uni shaxsning madaniy ongi, qadriyatlar tizimi va tarbiyaviy yo‘nalishlariga bevosita ta‘sir o‘tkazuvchi ijtimoiy-madaniy mexanizm sifatida ko‘rishni taqozo etadi. Chunki ommaviy madaniyat real hayotiy tajriba va xulq-atvor standartlarini ham “ko‘rinmas tarzda” me‘yorlashtirishi, ya‘ni jamiyat a‘zolari uchun qabul qilinarli deb tasavvur qilinadigan qoliplarni takror ishlab turishi bilan ajralib turadi; shu jihatdan u nafaqat madaniy mahsulot, balki ma‘naviy-axloqiy tarbiya maydoniga kirib keladigan ta‘sir tizimidir.

Globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat namunalari g‘oyaviy-ta‘sirning “kuchli vosita va kanali” sifatida faol qo‘llanayotgani, u bir tomondan madaniy makon integratsiyasini tezlashtirishi, ikkinchi tomondan esa milliy chegaralar hamda etnik-madaniy o‘ziga xoslikning zaiflashuvi va yemirilishi xavfini kuchaytirishi qayd etiladi. Bu holat muammoning mohiyatini yanada aniqlashtiradi: ommaviy madaniyatning eng ta‘sirchan mexanizmlaridan biri “universal, shablonli modellarning” tarqalishini jadallashtirishi va shu orqali shaxs hamda milliy madaniyatga bosim o‘tkazishidir. Bunday sharoitda ilmiy tahlilning markaziy vazifasi — ommaviy madaniyatning tipologik belgilarini aniqlash, uning “qoliplashtirish” tabiatini ochish va bu jarayonning tarbiyaviy oqibatlarini ma‘naviyat





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



mezonlari bilan bog'lab izohlashdan iborat bo'ladi. Ayniqsa, muammoning yoshlar tarbiyasi bilan tutashuvi tasodifiy emas: ommaviy madaniyatning salbiy yo'nalishlari sifatida urf-odatlardan begonalashish, milliy-diniy tarbiyadan uzoqlashish, shuningdek axloqiy buzqlik, zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm kabi illatlar bilan bog'liq ogohlantirishlar mavjud bo'lib, ularni hozirgi raqamli muhit kontekstida qayta tahlil qilish zarur.

Bugungi raqamli makonda qisqa vizual kontent oqimi mazkur jarayonning tezlashtiruvchi omiliga aylanadi: qisqa, tez iste'mol qilinadigan va ko'ngilochar "signal"larga boy kontentlar ommaviy madaniyatning kundalik hayotga singish shaklini kuchaytirib, uning qoliplarini "odatiy hol" sifatida qabul qildirishga moyillikni oshiradi. Shu nuqtada muammoning dolzarbligi "axborot xuruji" va ma'naviy xavfsizlik masalalari bilan ham uzviy bog'lanadi: ommaviy madaniyatning yoshlar tarbiyasiga tahdidi sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi strategik vazifa sifatida talqin etiladi. Demak, mazkur maqolaning maqsadi Instagramdagi qisqa kontent oqimini ommaviy madaniyatning zamonaviy raqamli kanali sifatida tahlil qilish, uning yoshlar ma'naviyati (qadriyatlar ierarxiyasi, urf-odatga munosabat, axloqiy me'yorlar va tarbiyaviy orientatsiya)ga salbiy ta'sir mexanizmlarini nazariy hamda sifat tematik tahlil yordamida yoritishdan iboratdir. Bunda tadqiqotning konseptual yo'nalishi ommaviy madaniyatning tipologik xususiyatlarini qisqa vizual oqim sharoitida aniqlashtirish va tarbiyaviy profilaktika nuqtayi nazaridan ongli tanlov, tanqidiy idrok hamda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zaruratini asoslashga qaratiladi

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida "ommaviy madaniyat"ning mazmuni, qamrov doirasi va yoshlar tarbiyasiga tahdidi masalalarini yorituvchi manbalar tahlil qilindi; xususan, ommaviy madaniyatning kundalik hayot, ko'ngilochar va axborot madaniyati sifatidagi talqini hamda uning OAV, jumladan Internet orqali keng yoyilish mexanizmi metodologik tayanch sifatida qabul qilindi. Shu bilan birga, globallashtirish sharoitida ommaviy madaniyat namunalari "kuchli vosita va kanal" sifatida faol ishlatilishi, bir tomondan integratsion jarayonlarni tezlashtirishi, ikkinchi tomondan milliy chegara va etnik-madaniy o'ziga xoslikning yemirilishi xavfini kuchaytirishi haqidagi ilmiy qarashlar tadqiqotning konseptual yo'nalishini belgilab berdi.

Nazariy tahlilning muhim bo'g'ini sifatida ommaviy madaniyatning "universal, shablonli modellari" tarqalishini jadallashtirishi va shu orqali shaxs hamda milliy madaniyatga bosim o'tkazish mexanizmlarini aniqlash zarurati e'tiborga olindi. Yoshlar tarbiyasi kontekstida esa ommaviy madaniyatning salbiy yo'nalishlari sifatida urf-odatlardan begonalashish, milliy-diniy tarbiyadan uzoqlashish, axloqiy buzqlik, zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm kabi illatlar bilan bog'liq ogohlantirishlar tahliliy mezon sifatida qo'llandi. Shuningdek, ommaviy madaniyatning jamiyat ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini "zimdan ta'qib" etishi haqidagi yondashuv empirik kuzatuvlarni talqin qilishda muhim tushuntiruvchi ramka vazifasini bajardi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Empirik qism oxirgi bir hafta doirasida sifat metodlarga tayangan holda tashkil etildi va unda miqdoriy hisob-kitoblar emas, balki ommaviy madaniyatga xos ma'no birliklarini ajratish hamda ularni ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari bilan bog'lab izohlash maqsad qilindi. Birinchidan, Instagram platformasidagi qisqa vizual kontent oqimida uchraydigan "axloqiy signallar" (xulq me'yorlari va munosabatlar modeli, iste'molchi idealining ustuvorligi, tana/imidjga urg'u, urf-odat va milliy me'yorlarga munosabat, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy manfaat nisbatining talqini) tematik kodlash orqali ajratildi; bu jarayonda kontent tahlilining vazifasi foiz yoki reyting chiqarish emas, balki ommaviy madaniyatning tipologik belgilarini qisqa format sharoitida "tendensiya naqshlari" sifatida aniqlashdan iborat bo'ldi. Ikkinchidan, qisqa so'rov va kuzatuv usuli orqali yosh foydalanuvchilarning qisqa kontentni qabul qilishi, undagi obraz va ssenariylarga munosabati, taqlid motivlari hamda qadriyatlar haqidagi mulohazalari ochiq javoblar asosida umumlashtirildi; metodologik shaffoflikni saqlagan holda so'rov savollari matnga kiritilmadi, natijalar esa faqat tematik xulosalar ko'rinishida bayon qilindi va miqdoriy ko'rsatkichlar bilan ifodalanmadi.

Nihoyat, tahlil mezonlari yuqorida qayd etilgan nazariy manbalardagi qarashlar bilan moslashtirilib, ya'ni bir tomondan ommaviy madaniyatning "universal qoliplar"ni tarqatish mexanizmi, ikkinchi tomondan esa Ibragimov ko'rsatgan tarbiyaviy xavf yo'nalishlari (urf-odatlardan begonalashish, axloqiy buzqlik, zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm) empirik materialni talqin qilishning markaziy mezonlari sifatida qabul qilindi.

NATIJALAR

Sifat tahlil natijalari Instagramdagi qisqa kontent oqimida ommaviy madaniyatga xos bir qator barqaror tendensiyalar mavjudligini ko'rsatadi; mazkur tendensiyalar kontentning ko'ngilochar-axborot xarakteri bilan uyg'un holda, ma'naviy-axloqiy mezonlar sohasida "normal holat" sifatida qabul qilinadigan qoliplarni asta-sekin mustahkamlash ehtimolini kuchaytiradi.

Ommaviy madaniyatning kundalik hayot va ko'ngilochar-axborot madaniyati sifatidagi talqini aynan shu jarayonni izohlashga metodologik asos bo'lib xizmat qiladi: qisqa format mazmuni soddalashtiradi, taassurot tezligini oshiradi va axloqiy baholashni "tezkor reaksiya" darajasiga tushirishga moyillik tug'diradi. Shu ma'noda, birinchi kuzatuv axloqiy me'yorlarning soddalashuvi hamda "tez zavq" (tezkor qoniqish) modelining ustuvorligi bilan bog'liq bo'lib, kontent oqimida xulqni murakkab axloqiy tanlovlar orqali emas, balki tezkor taassurot, qisqa ssenariy va yengil stereotiplar orqali baholash odati kuchayishi mumkinligi bilan ifodalanadi; bunday muhitda tarbiyaviy jihatdan muhim bo'lgan mas'uliyat, sabr, oqibatni o'ylash kabi regulyatorlar fonlashadi va "tez iste'mol qilinadigan ma'no" ustuvor tus oladi.

Ikkinchi kuzatuv urf-odat va milliy tarbiyadan begonalashish signallari bilan tavsiflanadi: qisqa kontent oqimida muayyan turmush tarzi, kiyinish va muloqot "standart"lari ideal sifatida takror taqdim etilishi yoshlar ongida milliy me'yorlar ikkilamchi ekaniga doir ichki tasavvurni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Bu tendensiya yoshlar tarbiyasiga tahdid



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



doirasida milliy-diniy tarbiyadan hamda urf-odatlardan begonalashish holatlari alohida ogohlantirish sifatida qayd etilgan qarashlar bilan mantiqan mos keladi. Mazkur jarayon bevosita “ochiq inkor” ko‘rinishida bo‘lmasligi, ko‘pincha moda, trend, “zamonaviylik” kabi ijtimoiy jihatdan betaraf ko‘rinadigan niqoblar ostida kechishi mumkinligi sababli, u tarbiyaviy tizim uchun yanada murakkab profilaktik vazifani yuzaga keltiradi.

Uchinchi kuzatuv individualizm va egotsentrizmning normallashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, qisqa kontent “men” markazli imidj, shaxsiy manfaatni birlamchi qo‘yish, o‘zini ko‘rsatish va shaxsiy muvaffaqiyatni yagona mezon sifatida ideallashtiruvchi semantik maydonni kuchaytirishi mumkin. Ibragimov tomonidan ommaviy madaniyatning tarbiyaviy xavf yo‘nalishlari qatorida individualizm va egotsentrizmning kuchayishi alohida tilga olingani ushbu kuzatuvni konseptual jihatdan mustahkamlaydi. Bu yerda muhim nuqta shundaki, bunday “men-markazli” qoliplar odatiy ko‘rinish olgani sari jamoaviy mas‘uliyat, hamjihatlik, boshqaga hurmat va ijtimoiy foyda kabi qadriyatlar bilan ziddiyat kuchayishi mumkin, ya’ni ma’naviyatning ijtimoiy-axloqiy tayanchlari zaiflashish xavfi yuzaga keladi.

To‘rtinchi kuzatuv zo‘ravonlik va axloqiy buzuvchilikka nisbatan befarqlik (yoki sezgirlikning pasayishi) ehtimoli bilan ifodalanadi: ko‘ngilochar kontentlarda me‘yorlar siljishi ayrim holatlarda axloqiy buzuvchilik yoki zo‘ravonlik elementlarini “oddiy hol” sifatida qabul qilishga zamin yaratishi mumkin. Ibragimov ommaviy madaniyatning salbiy yo‘nalishlari ichida axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlikni ma’naviy-axloqiy tubanlik bilan bog‘liq asosiy komponentlar sifatida alohida tilga oladi; shu bois qisqa kontent oqimidagi mazmuniy soddalashuv va normallashuv mexanizmi aynan ushbu yo‘nalishlarda tarbiyaviy xavfni kuchaytirishi ehtimoli mavjud. Umuman olganda, sifat tahlil natijalari qisqa kontent oqimini ommaviy madaniyatning zamonaviy raqamli “tezlantgichi” sifatida ko‘rish mumkinligini ko‘rsatadi: u kundalik ko‘ngilochar-axborot iste‘moli orqali shablonli modellarni takror ishlab, ma’naviy-axloqiy mezonlar sohasida sekin, lekin barqaror siljishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

MUHOKAMA

Muhokama doirasida olingan tematik natijalar Instagramdagi qisqa kontent oqimini ommaviy madaniyatning raqamli “tezlantgichi” sifatida talqin qilishga asos beradi, zero ommaviy madaniyatning o‘zi kundalik hayot, ko‘ngilochar va axborot madaniyati sifatida ommaviy axborot vositalari hamda Internet orqali keng yoyilishi bilan tavsiflanadi va qisqa vizual format aynan shu “kundalik iste‘mol”ni keskin jadallashtirib, ma’no birliklarining qisqarishi, ideallar va xulqiy mezonlarning soddalashuvi, takrorlanadigan vizual qoliplarning barqarorlashuvi kabi jarayonlarni kuchaytiradi. Bunday tezlantgichning konseptual mohiyati shundaki, qisqa kontent oqimi ommaviy madaniyatga xos “universal, shablonli modellar”ni doimiy takror ishlab, ularni ijtimoiy ongda odatiy norma sifatida mustahkamlash ehtimolini oshiradi, holbuki tipologik yondashuv aynan shu modellarning shaxs hamda milliy madaniyatga ta’sir mexanizmini aniqlash zarurligini ta’kidlaydi.

Mazkur jarayon globallashtiruvning umumiy mantig‘i bilan hamohangdir: ommaviy madaniyat namunalari global miqyosda “kuchli vosita va kanal” sifatida faol ishlatilishi, bu



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



holat bir tomondan madaniy makon integratsiyasini tezlashtirishi, ikkinchi tomondan esa milliy chegaralar hamda etnik-madaniy o'ziga xoslikni yemirish xavfini kuchaytirishi qayd etiladi. Shuning uchun Instagramdagi qisqa kontent oqimi muammosini faqat "platforma masalasi" sifatida tor doirada ko'rib chiqish metodologik jihatdan yetarli emas; u ma'naviy xavfsizlik va tarbiya masalasi sifatida, xususan "axborot xuruji" sharoitida yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarurati bilan bog'liq holda talqin qilinishi lozim. Bu yondashuvda masalaning markazida shaxsning kontentni ongli tanlashi, qadriyatlarni me'yor sifatida ushlab qolishi va tarbiyaviy yo'nalishni mustahkamlovchi ijtimoiy institutlar (oila, ta'lim, jamoatchilik)ning moslashuvchan strategiyalari turadi.

Muhokama nuqtayi nazaridan maqola uchun asosiy ilmiy xulosa shundan iboratki, qisqa vizual kontent oqimi ommaviy madaniyatning "universal qoliplar"ini tarqatish uchun qulay muhit yaratadi; bu qoliplar esa qadriyatlar tizimi, urf-odatga munosabat va axloqiy me'yorlar sohasida sekin, biroq barqaror siljishlarni yuzaga keltirishi mumkin, chunki yoshlar tarbiyasi doirasida urf-odatlardan begonalashish, axloqiy buzulqik, zo'rvonlik, individualizm va egotsentrizm kabi salbiy yo'nalishlarning kuchayishi ommaviy madaniyat tahdidi bilan bog'liq ogohlantirishlar qatorida ko'rsatiladi.

Shu bois bu muhitdagi ta'sirni bartaraf etish strategiyasi "taqiqlash"dan ko'ra, tarbiyaviy-ijtimoiy mexanizmlarni kuchaytirish, media madaniyatni rivojlantirish, tanqidiy idrok va qadriyatlarni ongli tanlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ma'naviy tarbiya tizimini raqamli muhit sharoitiga mos ravishda modernizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lishi kerak; aynan shu yo'l bilan ommaviy madaniyatning g'oyaviy bosimiga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash mumkinligi haqidagi konseptual yondashuv amaliy mazmun kasb etadi.

XULOSA

Maqola doirasida olib borilgan nazariy hamda tematik tahlil shuni ko'rsatadiki, Instagramdagi qisqa kontent oqimi ommaviy madaniyatning kundalik hayot, ko'ngilochar va axborot madaniyati sifatidagi mohiyatini raqamli muhitda yanada kuchaytiruvchi kanal vazifasini bajarishi mumkin; bunday tezkor vizual iste'mol sharoitida ommaviy madaniyatga xos "universal, shablonli modellar"ning takror ishlab turilishi jadallashib, ma'naviy-axloqiy mezonlar sohasida "normal holat" sifatida qabul qilinadigan qoliplarni mustahkamlash ehtimoli ortadi. Shu mantiqda, yoshlar ma'naviyatiga ehtimoliy salbiy ta'sir, avvalo, axloqiy me'yorlarning soddalashuvi va tezkor taassurotga asoslangan baholashning kuchayishi, urf-odat hamda milliy tarbiyaviy me'yorlardan begonalashishga olib keluvchi signallarning normallashuvi, "men" markazli imidj orqali individualizm va egotsentrizmning odatiy ko'rinish olishi, shuningdek zo'rvonlik va axloqiy buzulqikka nisbatan sezgirlikning pasayishi kabi yo'nalishlarda namoyon bo'lishi mumkin; bu yo'nalishlarning aynan yoshlar tarbiyasi uchun xatarli ekanligi ommaviy madaniyatning tarbiyaviy tahdidi doirasida alohida ta'kidlangan.

Shu sabab, muammoni bartaraf etishning eng maqbul yo'li "taqiqlash" yoki faqat nazorat mexanizmlarini kuchaytirish emas, balki tarbiyaviy-ijtimoiy mexanizmlarni ilmiy asosda



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mustahkamlashdan iborat bo‘lishi lozim: birinchidan, yoshlar orasida media savodxonlikni, xususan kontentni tanqidiy idrok etish va ma’no birliklarini “qadriyatlar mezonini” orqali tahlil qilish ko‘nikmalarini kuchaytirish; ikkinchidan, tarbiya tizimida milliy qadriyatlar va ma’naviy mezonlarni zamonaviy raqamli muhit sharoitiga mos shaklda mustahkamlab borish, ya’ni urf-odat, ijtimoiy mas’uliyat, hurmat, me’yor kabi tayanch qadriyatlarni “zamonaviy kommunikatsiya tili”da izchil singdirish; uchinchidan esa ommaviy madaniyatning “axborot xuruji” tabiatini izohlash va shu orqali yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Mazkur xulosalar ommaviy madaniyatning globallashuv sharoitida kuchli ta’sir kanali sifatida ishlatilishi haqidagi nazariy yondashuv bilan uyg‘un bo‘lib, yoshlar tarbiyasini himoyalashda ma’naviy xavfsizlikning konseptual asosini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B.110.
2. Rahmonova, S. Sh., Xayrullayev, U. F., Sayfutdinov, F. I. “Ommaviy madaniyat”ning mohiyati, tarixiy ildizi, harakteri va rivojlanish bosqichlari. — 2025. — 16-yanvar.
3. Ibragimov, S. “Ommaviy madaniyat” tushunchasi va uning yoshlar tarbiyasiga tahdidi // *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. — 2023. — T. 3. — № 11. — 3-noyabr.
4. “Ommaviy madaniyat: ta’rif, tahlil, aksiltehnologiyalar” // *Academic Research in Educational Sciences*. — 2022. — T. 3. — № 5. — B. 736–741. — DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-736-741.
5. Raxmonova, S. (2024). Harmony of education and training. *Jurnal universalных научных issledovaniy*, 2(5), 366-375.
6. Ramatov, J., Hasanov, M., & Rahmonova, S. (2024). Ta’lim tizimi modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy asoslari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(8), 160-172.

